

MUSIQA MASHG'ULOTLARI JARAYONDA IJTIMOYIY FAOL SHAXSNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI

G.M.Davronova

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Musika ta'limi kafedrasida dotsenti (PhD)*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada musiqa mashg'ulotlari jarayonida ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishning asosiy pedagogik tamoyillari tahlil qilinadi. Musika ta'limi bolaning nafaqat badiiy-estetik didini rivojlantiradi, balki uning ijtimoiy faolligi, muloqot qobiliyatlari, jamoada ishlash ko'nikmalari va o'zini namoyon qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.*

Tadqiqot davomida musiqa mashg'ulotlarida qo'llaniladigan pedagogik tamoyillarning imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Ijtimoiy taraqqiyotga erishishda, hamda, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishda musiqa mashg'ulotlari jarayonida hosili qilinadigan: hamkorlik, o'zaro hurmat, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy moslashish va kommunikativlik kabi omillarning o'rni muhimligi asoslanadi.

***Kalit so'zlar:** musiqa ta'lim-tarbiyasi, ijtimoiy faollik, pedagogik tamoyillar, hamkorlikda ishlash, ijodiy fikrlash, muloqot ko'nikmalari, mas'uliyat, mustaqil qaror qabul qilish.*

KIRISH

Musika ta'lim-tarbiyasi shaxsning har tomonlamma kamol topishi uchun qudratli vositalardan biri hisoblanadi. Musiqiy mashg'ulotlar jarayonida yosh avlodni axloqiy poklik, ma'naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan har tomonlamma etuk shaxs qilib shakllantirish uchun zamin yaratilishi ta'kidlanadi. Xususan, musiqa darslari orqali o'quvchilarda yuksak ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatni, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini, nafosat va badiiy didni shakllantirish, tafakkurlarini kengaytirish hamda mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga erishish mumkin.

Zamonaviy tadqiqotlar ham musiqiy ta'limning keng qamrovli ijobiy ta'sirini tasdiqlamoqda: musiqa bilan shug'ullanish o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va o'ziga ishonchini oshiradi, ruhiy holatini barqarorlashtiradi hamda ularning umumiy o'qish natijalarini yaxshilaydi.

Olimlar musiqiy faoliyat jarayonida yoshlar turli ko'nikma va kompetensiyalarni egallashlari, o'z hissiyotlarini ifoda etib yengillashtirishlari, shaxsiy identitetini¹ shakllantirishlari va maktab hamda jamiyat bilan bog'lanish hissini mustahkamlashlari mumkinligini qayd etishgan. Albatta, bu kabi natijalarga erishish musiqiy tarbiya jarayonini to'g'ri ilmiy yondashuv va pedagogik tamoyillar asosida tashkil etishni talab etadi.

¹ Shaxsning identiteti — bu insonning o'zini kim deb bilishi, o'ziga xosligi va boshqalardan farqlanishini anglatuvchi tushuncha. Identitet insonning ichki dunyosi, qadriyatlarini, e'tiqodlari, xulq-atvori va ijtimoiy o'rni bilan bog'liq bo'ladi.

Quyida musiqiy tarbiyada shaxsni har jihatdan rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy pedagogik prinsiplarga, ularning mohiyatiga va ularni tatbiq etish misollariga to‘xtalib o‘tamiz.

Ijtimoiy moslashuv va kommunikativlik tamoyili:

Musiqqa ta‘limi o‘quvchilarda nafaqat musiqiy qobiliyatlarni, balki ijtimoiy moslashuv va kommunikativlik qobiliyatlarini shakllantirishga ham yordam beradi. Bu prinsip orqali o‘quvchilar jamoaviy muhitga moslashish, boshqalar bilan muloqot qilish, hamkorlik qilish va o‘z fikrini musiqqa orqali ifodalashni o‘rganadilar. Quyida ijtimoiy moslashuv va kommunikativlik prinsipini shakllantirishda qo‘llaniladigan aniq usullar keltiriladi:

1. Ansambl va orkestr faoliyatida ishtirok etish;

O‘quvchilar ansambl yoki orkestr tarkibida qatnashish orqali jamoa bilan ishlash, o‘zaro moslashish, boshqalarni tinglash va bir-birini tushunishni o‘rganadilar. O‘quvchilar ansambl tarkibida kuylash yoki cholg‘u asboblarda ijro qilish davomida boshqalar bilan uyg‘unlikka erishishga harakat qiladilar. Masalan, bir kishi ritmni buzsa, butun ansamblning ijrosi buziladi. Bu esa ularda o‘zaro kelishuvga intilish, moslashish va muloqot qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

O‘quvchilar jamoaviy ish muhitiga moslashadi va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Hamkorlikda ishlash, kuylash va qo‘shiq aytishga erishish;

Birgalikda qo‘shiq kuylash jarayonida o‘quvchilar bir-birlarini tinglash, ovozini boshqarish va umumiy uyg‘unlikka erishishga harakat qilishadi. Masalan, xor jamoasida bir o‘quvchi baland yoki past kuylasa, boshqalar bilan uyg‘unlik yo‘qoladi. Bu esa o‘quvchilarni o‘z ovozini boshqarish, boshqalarni tinglash va moslashishga o‘rgatadi. Natijada, ular o‘zaro tushunish, moslashish va ijro intizomini shakllantiradi.

3. Musiqiy tadbirlar va konsertlarda ishtirok etish;

O‘quvchilar umumiy tadbirlar va konsertlarda qatnashish orqali o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish bilan birga, jamiyat oldida o‘zini erkin tutish, chiqish qilish va auditoriya bilan muloqot qilishni o‘rganadi. Masalan, maktab bayramlarida xor yoki ansambl bilan kuylash davomida o‘quvchilar sahnaga chiqadi, auditoriya oldida chiqish qiladi. Ular chiqishdan oldin bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi, qo‘rquvni yengadi va bir jamoa sifatida ishlaydi.

Natijada, o‘quvchilarda ijtimoiy faollik va o‘zini namoyon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. Musiqqa orqali milliy qadriyatlarni o‘rganish va tushunish;

O‘quvchilar milliy kuylar va qo‘shiqlarni ijro qilish davomida milliy qadriyatlarni his qiladilar va o‘z millatiga hurmat bilan qarashni o‘rganadilar. Musiqa orqali ular o‘z xalqiga xos urf-odatlarini anglab, milliy madaniyatni hurmat qilishadi. Natijada, o‘z milliy madaniyatiga hurmat bilan qaraydi va boshqa millat vakillari bilan muloqot qilishga o‘rganadi.

5. Muloqot orqali musiq asarlarini tahlil qilish;

O‘quvchilar ijro qilgan musiqa asarlarini o‘zaro muhokama qilish, fikr bildirish, bir-biriga maslahat berish orqali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, bir o‘quvchi kuyni noto‘g‘ri ijro qilganida, boshqasi unga xato qayerda ekanini tushuntiradi va o‘qituvchi bilan birga uni tuzatadi. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifoda qilishni va boshqalarning fikriga hurmat bilan qarashni o‘rganadi. Natijada ular o‘zaro hurmat bilan muloqot qilish, konstruktiv tanqidni qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Musiqa ta’limi orqali o‘quvchilar faqat musiqani o‘rganib qolmay, balki jamiyat bilan uyg‘unlikda yashash, boshqalar bilan muloqot qilish, o‘z fikrini himoya qilish kabi muhim hayotiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladilar.

Individuallikka yo‘naltirish tamoyili:

Har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib ta’lim berish – musiqa pedagogikasining muhim prinsipi sanaladi.

Individuallikka yo‘naltirish tamoyili - ta’limni o‘quvchining yoshi, qiziqishlari, qobiliyati va tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni nazarda tutadi. Amaliyotda bu, har bir bolaga alohida e’tibor berish, ularning ijodiy faollik darajasini inobatga olish, vaqti-vaqti bilan individual topshiriqlar va maslahatlar berib borishni talab etadi. Masalan, qo‘shiq kuylash mashg‘ulotlarida “Har bir bolaning individual xususiyatini hisobga olish” muhim shartlardan biri ekani ta’kidlanadi.

“Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji” mavzusida, “Ta’limning insonparvar modeli” – o‘quvchilarning ichki olamini boyitish, muloqot, diologlar orqali uni pedagogik psixologik qo‘llab-quvvatlashni ko‘zda tutadi. Bunda ta’lim professional yondashuvga asoslanib, o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga, o‘quvchi shaxsini hurmat qilishga qaratilgan [5, 386-b.].

Mashg‘ulotlar jarayonida ayrim bolalar tez va qobiliyat bilan ijro etishsa, boshqalariga ko‘proq vaqt ajratish va metodik yondashuv talab etadi. O‘qituvchi ana shu farqlarni inobatga olib, o‘quvchilarning har birining ichki imkoniyatlarini ochishga xizmat qiluvchi individual yondashuvni qo‘llaydi.

Individual yondashuvlar har bir o'quvchi uchun maxsus mashqlar, repertuar, metod va metodikalar tanlash orqali musiqiy texnik mahoratni samarali rivojlantirish mumkin. Shuningdek, har bir o'quvchilarning ovoz diapazoni, ritmni his qilish qobiliyati yoki musiqiy eshitish darajasi har xil. Individual yondashuv bu o'ziga xosliklarni aniqlab, ular asosida ijro uslubini rivojlantirish imkonini beradi [5, 3-b.].

Ijodiy rivojlanish tamoyili:

Musiqiy ta'limning yana bir ustuvor vazifasi – o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini o'stirishdir. Ijodiy rivojlanish prinsipi darslarda bolalarga shunchaki tayyor asarlarni ijro ettirish bilangina cheklanmay, balki ularning musiqiy tafakkurini kengaytirish va mustaqil ijod qilish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mashhur pedagog Karl Orfning fikriga ko'ra, boshlang'ich bosqichdagi musiqa tarbiyasi "Nafaqat nota o'qishga o'rgatish yoki ritm tuyg'usini rivojlantirish, balki bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va improvizatsiya qilish malakasini kengaytirish demakdir" [2, 44-b.]. Darhaqiqat, bolalar musiqa darslarida kuy va qo'shiqlarni yod olish barobarida, o'zlari kuylab chiqish, oddiy sozlar jo'rligida ijodiy ohang to'qish, musiqa va harakatlar o'ylab topish kabi mashqlarga jalb etilganda, ularning musiqaga qiziqishi va zavqi ortadi. Ilmiy tadqiqotlar ham muntazam musiqiy mashg'ulotlar o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini oshirishini ko'rsatgan.

Xususan, kompozitsiya yozish, improvizatsiya (yakkaxon yoki jamoaviy) kabi ijodiy topshiriqlar orqali bolalar musiqiy ifoda vositalarini faol o'zlashtiradi va o'zini ijodiy namoyon etishni o'rganadi.

Estetik tarbiya tamoyili:

Musiqqa san'ati o'quvchilarda go'zallikni his etish, badiiy did va nafis tuyg'ularni rivojlantirish uchun beqiyos imkoniyatlar yaratish orqali estetik tarbiya beradi.

Estetik tarbiya musiqiy ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, insonning badiiy didini shakllantirish, go'zallikni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish va san'atga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Musiqqa san'ati inson qalbiga chuqur ta'sir etuvchi vosita bo'lib, shaxsni ma'naviy va ruhiy jihatdan boyitadi, axloqiy fazilatlarini yuksaltiradi va uning ichki dunyosini boyitadi. Shu bois, estetik tarbiya prinsipi musiqa ta'limida o'quvchilarning go'zallikni his qilish va tushunish qobiliyatini rivojlantirish, ularni ma'naviy barkamollikka yetaklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

1. Estetik tarbiyaning maqsadi va mohiyati

- O'quvchilar musiqaning badiiy-estetik jihatlarini tushunishni o'rganadilar. Ular musiqa janrlari, uslublari va shakllari haqida bilimga ega bo'lib, yuqori badiiy qiymatga ega asarlarni baholash qobiliyatiga ega bo'ladilar.

- Go‘zallikni idrok etish va unga muhabbat uyg‘otish – Musiqaning ifoda vositalari (ritm, ohang, tembr, dinamika) orqali go‘zallikni sezish va tushunish o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantiradi.

- Shaxsiy his-tuyg‘ularni ifodalash va boyitish – O‘quvchilarning san‘at va musiqaga nisbatan emotsional javobi ularning ichki dunyosini yanada boyitadi va ma‘naviy olamini kengaytiradi.

2. Estetik tarbiyaning inson hayotidagi o‘rni

- Go‘zallikni idrok etish insonda yaxshilik, samimiylik va mehr-oqibat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Musiqa estetikasi orqali inson qalbida poklik, mehr-oqibat va ezgulik hissi rivojlanadi.
- Musiqiy estetik tarbiya odamning madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, uni milliy va jahon madaniyati bilan tanishtiradi.
- Estetik tarbiya insonda nafislik, sezgirlik va ichki dunyosini boyitish xususiyatlarini rivojlantiradi.
- Musiqa orqali inson o‘z fikrini ijodiy ifodalash, yangi g‘oyalar yaratish va o‘z qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. Musiqiy ta‘limda estetik tarbiyani shakllantirish usullari

Musiqiy ta‘lim jarayonida estetik tarbiyani rivojlantirishning turli usullari mavjud.

Ular orasida:

- Klassik va zamonaviy musiqa namunalarini tinglash va tahlil qilish orqali o‘quvchilarning musiqiy didi shakllanadi.
- O‘quvchilarga musiqa yaratish, kuylash, cholg‘u chalish yoki sahna chiqishlari qilish orqali o‘z fikrlarini ifodalash imkoniyatini berish.
- Musiqani tasviriy san‘at, adabiyot va teatr san‘ati bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarning musiqani chuqurroq anglashiga erishish.
- O‘quvchilarning musiqiy taassurotlarini ifodalash, ularning emotsional javoblarini shakllantirish uchun maxsus mashg‘ulotlar tashkil etish.

Estetik tarbiya prinsipining ahamiyati shundaki, u shaxsning ma‘naviy kamolotiga xizmat qiladi, badiiy didini shakllantiradi va musiqaga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otadi. Musiqa inson hayotiga estetik zavq bag‘ishlaydi, uning ichki dunyosini boyitadi va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Shu sababli, musiqa ta‘limida estetik tarbiya asosiy pedagogik prinsip sifatida muhim o‘rin tutadi.

Xalqaro tajriba va taqqoslash tamoyili:

Bu prinsip quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Musiqiy ta‘limning milliy o‘ziga xosligini saqlagan holda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va tatbiq etish.

- Turli mamlakatlarda musiqiy tarbiya tizimlarining taqqosiy tahlili orqali samarali metodlarni aniqlash.

- Jahon miqyosida musiqiy tarbiyaning pedagogik asoslarini o‘rganib, ularni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish.

- Musiqiy tarbiyaning turli mamlakatlarda shaxs kamolotiga ta’sirini tahlil qilish.

Bugungi kunda xalqaro tajribani o‘rganishning ahamiyati juda muhim.

Musiqiy tarbiyaning xalqaro tajribasi quyidagi jihatlarda o‘z aksini topadi:

- Ayrim mamlakatlarda musiqa darslari boshqa san’at turlari (teatr, raqs, tasviriy san’at) bilan uyg‘unlashtirilgan.
- Ko‘plab mamlakatlar musiqa ta’limini individual yondashuv va ixtisoslashtirilgan dasturlar asosida olib boradi.
- Musiqiy tarbiya jarayoni jamiyatning barcha qatlamlari, jumladan, oilalar va mahalliy madaniyat markazlari bilan integratsiyalashganligi diqqatga sazovordir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, musiqiy tarbiya shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi kuchli vosita hisoblanadi. Musiqiy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda axloqiy, ma’naviy va badiiy didni shakllantirish, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishga erishish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarda nafaqat musiqiy savodxonlikni, balki ijodiy tafakkur, axloqiy poklik, milliy o‘zlikni anglash va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, musiqa ta’lim-tarbiyasi o‘quvchilarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishida va ijtimoiy kamoloti uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi ma’lumotlari (2023) – umumta’lim maktablarida “5 ta muhim tashabbus” doirasida to‘garaklarga qamrov statistikasi.
2. Soipova D. (2009) “Musiqqa o‘qitish metodikasi va nazariyasi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent. «Fan va texnologiya Markazining bosmaxonasi», 219 bet.
3. Davronova G.M. (2021) “Musiqqa o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: SamDU nashriyil, – 192 bet.
4. Davronova G.M. (2021) “Musiqqa o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: SamDU nashriyil, – 135 bet.
5. Allayarova N.N. “Sinf dan tashqari musiqa to‘garaklarini tashkil etishning samaradorligi”. Inter Education & Global Study jurnali, 2024. (Annotatsiya) <https://cyberleninka.ru/article/n/sinf-dan-tashqari-musiqa-to-garaklarini-tashkil-etishning-samaradorligi/viewer>

6. Davronova G.M. (2024) “Individual yondashuvlar asosida musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirish” musiqa ta’limi va san’atining bugungi globallashuv sharoitida milliy-ijtimoiy ahamiyati: muammo va yechimlar mavzusida konferensiya to’plami. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14406272>
7. Davronova G.M., Rahmatova F. (2024) “Ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashda ommaviy tadbirlarni tashkil etishning muhim jihatlari”. Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi. <https://pedagoglar.org/03/issue/view/120>
8. X.Ibraimov, M.Quronov Umumiy pedagogika darslik - T “Shahhof” nashriyoti, 2023 yil. 416 bet.
9. Davronova G.M. (2019) “Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash” o‘quv qo‘llanma. Toshkent. 162 bet.
10. Egamnazarov A.X. “Sinf dan tashqari musiqa to‘garaklarining mohiyati, maqsad va vazifalari”. Science and Education, 2021 (Vol.2, No.5), 526-533.
11. Шайкулов, Ш. Ш. (2021). The role of multimedia in the coverage of theoretical aspects of musicology. In Исследования молодых ученых (pp. 29-32).
12. Davronova, G. M. (2021). Methods of teaching music. Textbook. Samarkand.
13. Davronova, G. Z. M. (2022). Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni takomillashtirishda hamkorlikda o‘qitishning o‘rni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(4), 763-768.
14. Davronova, G. M. (2023). Important aspects of forming the skills of using information and communication technologies in preparing students for professional activities. International Journal of Pedagogics, 3(12), 132-138.
15. Davronova, G. M. Bo‘lajak musiqa o‘qituvshilarining pedagogik faoliyatga tayyorlashda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning muhim jihatlari. Наука и общество, 128.
16. Davronova, G. (2024). Individual yondashuvlar asosida musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirish. Nordic_Press, 5(0005).
17. Davronova, G. (2022). Effective forms and methods of formation of creative ability of future music teachers through cooperation teaching technologies. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11(02), 9-13.
18. Davronova, G. Musiqa va san’at maktablarida o‘quvchilar musiqiy idrokini rivojlantirish yo‘llari. Ilmiy axborotnoma, 97.
19. Davronova, G. M., & Shaykulov, S. S. (2024, December). Important aspects of formation of scientific-research skills in musical-pedagogical activity. In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 251-254).